

## Yoshlarda ma'naviy- ahloqiy tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari

**Xorazm viloyati IIB JXX XPB boshlig'i  
podpolkovnik Vapayev Sarvarbek Rajabbayevich**

**Annotatsiya:** Ushbu tadqiqotda yoshlarda ma'naviy-ahloqiy tarbiyani shakllantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari tahlil etiladi. Yoshlik davri inson hayotidagi muhim bosqich bo'lib, bu davrda shaxsning ichki dunyosi, ijtimoiy munosabatlari va ahloqiy qadriyatlari shakllanadi. Tadqiqotda yoshlarning ma'naviy-ahloqiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar, shu jumladan oilaning roli, ta'lim muassasalari va jamiyatdagi ijtimoiy normativlar o'rganiladi. Shuningdek, yoshlarda o'z-o'zini anglash, empatiya rivojlantirish va axloqiy qarorlar qabul qilish jarayonlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** ma'naviyat, ahlok, tarbiyaning ijtimoiy aspektlari, ijtimoiy munosabatlar, psixologik rivojlanish, o'z-o'zini anglash, shaxsiy qiymatlar, etika, ijtimoiy identifikatsiya, emotsional intellect, motivatsiya

Jamiyatning ta'lim-tarbiya sohasidagi asosiy ehtiyojlaridan biri bu – har tomonlama barkamol, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashdan iborat. Shunday ekan, bo'lajak mutaxassislarni intellektual salohiyatli, ma'naviy-kasbiy barkamol shaxs sifatida tarbiyalash davr talabi hisoblanadi. Bunda esa yoshlarning ma'naviy-axloqiy jihatdan yetukligi ham muhim o'rin tutadi.

Insonning ma'naviy- axloqiy tarbiyalanganligi uning tevarak-atrofdagi munosabatlaridan namoyon bo'ladi. U insonning hislarida, kechinmalarida ifodalanadi, hamda xulq-atvorida, xatti-harakatida ko'rinadi. Ma'naviy- axloqiy tarbiyaning maqsadi -shaxsni axloqiy jihatdan yetuk qilib shakllantirishdir.

Shaxsning muhim ma'naviy sifatleri bo'lgan axloqiy ong, hissiyot va xulqni shakllantirish; vatanparvarlik, vatanga muhabbat, O'zbekiston gerbi, bayrog'i, madhiyasiga hurmat, insonparvarlik, mehnatga munosabat, jamoa bilan birgalikda qilinadigan izlanishlarga munosabat, ongli intizom va boshqa tuyg'ularni kamol toptirish axloqiy tarbiyaning asosiy vazifalaridir.

Jamiyat taraqqiyotida tarbiya jarayonining ahamiyati beqiyos. Bunda insonni tarbiyalash, uni bilim olishga, mehnat qilishga undash va bu xatti-harakatini sekin-asta ko'nikmaga aylantirib borish lozim. Bu esa insonning mushohada qilish qobiliyatini tarbiyalaydi, mushohada qilish aqlni peshlaydi, aql ongni saqlaydi, ong esa moddiy va ma'naviy manbaga aylanadi.

Inson tarbiyasi uzoq muddatli, uzluksiz davom etadigan murakkab jarayon. U tarbiyachi (ota-ona, ustoz-murabbiy, pedagog)lardan doimo xushyorlik,



sergaklik, mahorat, bilim talab qiladi. Shu tarzda insonning asta-sekin aqliy salohiyati takomillashib, u komillikka intilib boradi. Bularni amalga oshirish uchun esa tarbiyachi va tarbiyalanuvchidan uzoq davom etadigan mas’uliyatli munosabat (muloqat), sharafli mehnat, qunt, iroda va shu kabi axloqiy xislatlar talab etiladi. Insoniy sifatlarning shakllanishida oiladagi, atrofdagi (mahalla, ko‘cha, bog‘cha, maktab, oliy o‘quv yurti), ijtimoiy (jamiyatdagi) muhit va bolaga (tarbiyalanuvchiga) bo‘lgan munosabat muhim rol o‘ynaydi.

Axloqiy tarbiyaning mazmuni, avvalo, yoshlarning amaliy faoliyatlarida, o‘qish, mehnat, jamoatchilik ishlarida, ularning munosabatlari xarakterida, o‘zaro ta’sir ko‘rsatish usullari, xulq-atvor me’yorlarini o‘zlashtirishlarida namoyon bo‘ladi. Ushbu sohada olib borilgan ko‘p yillik ilmiy izlanishlar natijalarining ko‘rsatishicha, ma’naviy- axloqiy tarbiyaning uzluksizligini quyidagi ko‘rinishda olib borish maqsadga muvofiq ekan: ona qornida → oilada → maktabgacha ta’lim muassasasida («Xonadon bog‘chasi», «Fermer xo‘jaligi bog‘chasi», «Bolalar bog‘chasi – maktabgacha ta’lim muassasasi» majmualari) → boshlang‘ich maktabda → o‘rta maktabda → o‘rta maxsus kasb-hunar t’limida → oliy o‘quv yurtida → oliy o‘quv yurtidan keyingi faoliyatda.

Tarbiya inson umrining oxirigacha davom etadigan jarayon bo‘lib (inson umrining oxirigacha o‘rganadi, degan naql asosida tarbiyalanib), inson doimiy ravishda rivojlanib, takomillashib, komillikka intilib yashaydi.

Quyida uzluksiz ravishda olib boriladigan axloqiy tarbiyaning har bir bosqichi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni keltiramiz.

1. Oilada ma’naviy- axloqiy tarbiya. Bola tarbiyasini ona qornidan boshlash maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu fikrni bir qator Sharq mutafakkirlari ham ta’kidlab o‘tishgan. Bolani tarbiyalash uchun, avvalo ota-onaning o‘zi tarbiyalangan bo‘lishi kerak. Faqatgina ham jismonan, ham ma’nan sog‘lom ota-onadan sog‘lom farzand dunyoga keladi.

Ota-ona yoki tarbiyachilarning bolalarni sevishi, ularning xatti-harakatiga ziyraklik va mehribonlik bilan munosabatda bo‘lishi, bolaning sog‘lom o‘shishiga, odo-axloqli bo‘lishiga olib keladi. Bolani lozim bo‘lganda maqtash, diqqatini ijobiy faoliyatga tortish, yomon ishlardan ehtiyot bo‘lishini uqtirish, axloqsiz so‘z va gaplardan uzoqroqda bo‘lishini ta’minlash, o‘rtoqlari bilan urishmaslik yo‘llarini o‘rgatish – ularga axloqiy tarbiya berishda ijobiy ta’sir hisoblanadi.

2. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiya. Maktabgacha bo‘lgan ta’lim muassasasidagi davr bola tarbiyasidagi eng muhim davr hisoblanadi. Chunki, bu davrda paydo bo‘lgan taassurotlar izi inson xotirasida umrbod saqlanib qoladi. «Yoshlikda olingan bilim – toshga o‘yilgan naqsh», deb bejiz aytishmagan dono xalqimiz.



Bu davr bolaning aqliy va jismoniy jihatdan tez o'sishi, dunyoni bilishga intilishi, atrof-muhitga o'z munosabatini bildirish istagi kuchayib borayotgan davrdir. Shu sababli ham bolalar juda sersavol, qiziquvchan bo'lib qoladilar. Ular nima?, nima uchun?, qanday qilib?, qayerda? degan savollarni juda ko'p berishadi. Ota-ona va tarbiyachilar esa bolalarning to'g'ri o'sishlari, aqliy va axloqiy, ma'naviy, estetik jihatdan tarbiyalanishiga jiddiy e'tibor berishlari lozim. Buning uchun o'yinlar va ertaklar asosida axloqiy tarbiya berish mumkin, chunki bu yoshdagi bolalar, asosan, o'yin faoliyatida bo'ladi, o'yinlarning rang-barang bo'lishi va jamiyatimiz maqsadlaridan kelib chiqib tashkil etilishi juda muhim.

3. Boshlang'ich ta'limda ma'naviy- axloqiy tarbiya. Boshlang'ich ta'limda bola hayotida yangi, qiziqarli va muhim davr boshlanadi. Chunki, bola maktabga kelgach yangi muhit, yangi tartib-qoida, yangi talablarga duch keladi. Bu davrda bolalar hali o'yin faoliyatini to'liq tark etmaganligini inobatga olib, o'tiladigan dars mashg'ulotlarini qiziqarli qilib olib borish lozim.

Bu davrga kelib bolaga tarbiyaviy ta'sir yo'llari bir muncha aniq va tizimli ravishda bo'lib qoladi. Chunki endi xususan «Odobnoma» darslari o'tila boshlaydi, bundan tashqari Alifbe, O'qish, Ona tili, Matematika, Atrofimizdagi olam kabi fanlarda ham muntazam ravishda axloqiy tarbiya berib boriladi. Endi bolalar asta-sekin nima yaxshi-yu, nima yomon ekanligini, bunyodkorlik nima-yu, vayronkorlik nima, ijobiy va salbiy xislatlar qanday ekanligini, qanday fazilatlarga ega bo'lish lozim-u, qanday qusurlardan xoli bo'lish lozimligini anglay boshlaydilar. Bu davrda turli to'garaklarni uyushtirish ham o'zining ijobiy natijalarini beradi. Bunda o'qituvchining pedagogik mahorati, bilimi, umuman, pedagogik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

4. O'rta umumiy ta'limda ma'naviy- axloqiy tarbiya. O'rta maktab davriga kelib o'quvchi o'rganadigan fanlar ham asta-sekinlik bilan murakkablasha boradi, shunga ko'ra o'quvchining fikrlashi va dunyoqarashi ham kengayib boradi. Bu davrda o'quvchilarga o'zaro odob-axloqqa doir maqollar va hadis namunalari bilan ko'proq aytish orqali musobaqa uyushtirish hamda ushbu maqol va hadislarga o'zlari ham amal qilishlarini tarbiyalash mumkin.

Endi o'quvchilar burch, vijdon, nomus, adolat, ezgulik kabi axloqiy tushunchalarning ma'nisini tushunib yetadilar. Ularga ota-ona va Vatan oldidagi burchlarini tushuntirib borish, turli musobaqalar va ommaviy mehnat tadbirlari orqali jamoa nomusini saqlash, bunga esa adolat yo'li bilan vijdonli baho berish orqali erishishni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

5. O'MKHTda ma'naviy-axloqiy tarbiya. O'MKHTda endi bolalar qiziqishi va intilishi hisobiga akademik liseylar yoki kasb-hunar kollejlari ta'lim olib boshlaydilar. Bu davr o'quvchilar tarbiyasida juda murakkab davr hisoblanadi.



Chunki, bu yoshdagi o'quvchilarda ham jismoniy ham ruhiy jihatdan keskin o'zgarish sodir bo'ladi. Bu davr o'smirlik davri bo'lib, o'tish davri deb ham ataladi.

Ko'pchilik o'quvchilar bu davrda o'zlariga ideal tanlaydilar, o'qituvchi esa bunda o'quvchilarga munosib ideal tanlashda yordam berishi va shu idealning ijobiy xislatlarini egallashga intilishini ko'chaytirishi lozim. Bu davrda o'quvchilarda halollik, rostgo'ylik, xushmuomalalik, boodoblik, kamtarlik, bosiqlik, xushfe'llilik, kamsuqumlik, shirinsuxanlik kabi axloqiy fazilatlarni tarbiyalash muhim hisoblanadi.

6. Oliy o'quv yurtlarida ma'naviy- axloqiy tarbiya. Oliy ta'limda o'quvchilar endi biror mutaxassislikni tanlagan holda, o'zining mustaqil fikri, dunyoqarashi, intellektual qiziqishiga ega bo'ladilar. O'quvchilar o'zlarining hozirgi faoliyatiga kelajakdagi hayotida o'z o'rnini topish, belgilash nuqtai nazaridan qaraydilar. Shu sababli bu davrda bo'lajak mutaxassislarni axloqiy jihatdan tarbiyalash muhim. Chunki bu davrda o'quvchi o'zining madaniy-ma'naviy saviyasini oshirishga intiladi, o'z ustida qunt bilan ishlaydi, radio, televideniye, Internet va barcha informasion vositalardan unumli foydalanadi, turli asarlar bilan tanishadi. Bu esa yoshlarni axloqiy jihatdan tarbiyalash uchun yordam beradi.

Endi biz shu o'rinda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining axloqiy tarbiyasi haqida so'z yuritamiz. Ushbu bo'lajak mutaxassislarda axloqiy tarbiyalanganlik mas'uliyati kuchliroq bo'ladi. Chunki, ertangi kunda ularning qo'lga Vatanimiz kelajagi bo'lmish yosh avlodni ishonib topshiramiz. Shu sababli bu davrda o'quvchilarda insonparvarlik, erkparvarlik, vatanparvarlik, millatparvarlik, tinchliksevarlik, shirinsuxanlik, xushfe'llilik, kamtarlik, bosiqlik kabi fazilatlarni rivojlantirish shart.

7. Oliy ta'limdan keyingi ma'naviy- axloqiy tarbiya. O'quvchi uzoq muddatli va tizimiy ta'lim natijasida mutaxassis sifatida shakllandi. Endi u nazariy jihatdan egallagan bilimlarini amaliyotda qo'llab yosh avlodga ta'lim-tarbiya beradi, uning o'zi boshlang'ich sinf o'quvchilarini axloqiy ruhda tarbiyalay boshlaydi. Uzluksiz ravishda uzoq muddatli olib borilgan ta'lim-tarbiya samarasi mana endi ko'zga tashlanadi.

Bola shaxsining kamol topishida doimiy ravishda muhitning ta'siri sezilib turadi. Muhit – bu insonga ta'sir etuvchi tashqi voqyea-hodisalar yig'indisi hisoblanadi. Shunday ekan, yuqoridagi uzluksiz tarbiya jarayonida muntazam ravishda tarbiyalanuvchida tashqi voqyea-hodisalar o'zining ijobiy yoki salbiy ta'sirini o'tkazib turadi. Buning uchun esa tarbiyalanuvchidagi o'zgarishlarga ota-onalar va tarbiyachi, o'qituvchilar doimiy ravishda e'tiborli bo'lib, tashqi muhitning salbiy ta'sirini oldini olib, ijobiy ta'sirlarni rivojlantirishga harakat qilishi va erishishi lozim.



Yoshlarda ma'naviy- ahloqiy tarbiyani shakllantirishga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim bo'ladi:

- uzluksiz olib boriladigan ta'lim-tarbiyaning har bir bo'g'inida beriladigan ma'naviy- axloqiy tarbiyaning maqsadga erishish yo'llarini izlab topish;

- ta'lim jarayonida turli ma'naviy va ma'rifiy ta'sir vositalaridan foydalanish orqali axloqiy tarbiya berishni muntazam ravishda jamiyat taraqqiyotiga moslab takomillashtirib borish;

- ma'naviy- axloqiy tarbiya berishda tarbiyalanuvchining yoshi va dunyoqarashini hisobga olgan holda zamonaviy axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va joriy etish;

- o'quvchi-yoshlarning ma'naviy- axloqiy jihatdan tarbiyalanganlik darajasini aniqlash maqsadida anketa so'rovlarini o'tkazib, natijalarini qayd etib borish;

- ma'naviy- axloqiy sifatlarga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashga erishish va h.k.

Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimida ma'naviy-axloqiy his-tuyg'ular inson tomonidan, uning hovea-hodisalar, kishilar hamda o'z xulqiga nisbatan his-tuyg'ularni uyg'otishga rag'bat paydo qiluvchi tarbiyaviy ishlar tizimli tashkil etilgandagina samarali kechadi.

Mazkur tizimda xulq-atvorni shakllantirishga oid tarbiyaviy ishlar aks etadi. Shunga ko'ra, ma'naviy-axloqiy xulq-odobga doir xislatlarni shakllantirishga undovchi rag'bat bilan hosil bo'ladigan faoliyat eng asosiy bo'lib hisoblanadi.

Shuningdek, yoshlarda ma'naviy-axloqiy xislatlarni shakllantirishga nisbatan ehtiyoj bo'lishi shart. Demak, ma'naviy-axloqiy tarbiyani tashkil etish jarayonida uyushtiriluvchi tadbirlar xulq-odobga doir xatti-harakatlar zanjiridan iborat bo'ladi. Ma'naviy-axloqiy xatti-harakatlar esa o'quvchi tomonidan axloqiy me'yor va tamoyillar mohiyatini o'rganish, ularni anglab yetishdan iboratdir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Musurmonova O. «Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi». – Toshkent: «O'qituvchi», 1996, 369 b.
2. Qurbonov Sh. va boshqalar. «Barkamol avlod orzusi». – Toshkent: «Sharq» NMK, 1999, 185 b.
3. Quranov M. Ma'naviy yuksalish yo'lida. T.: “Ma'naviyat”, 2008, 317-b

4. Olimov Sh.Sh. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarida axloqiy-estetik idealni shakllantirishning pedagogik asoslari. P.f.n.diss.avt. – Toshkent: 2002, 17 b

5. Pedagogika //A./Munavvarovning umumiy tahriri ostida. – Toshkent, O'qituvchi, 1996. 463 b



Research Science and  
Innovation House

